



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Maxmudov Mansurjon Abdug'opporovich</i> TARIXIY ASARLAR VA ULARNI O'RGANISH: MILLIY ZIYOLILAR TOMONIDAN OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR	12-17
<i>Qurbanov Xurshid Raupovich</i> O'ZBEKISTONDAN JANUBIY URALGA SAFARBAR QILINGAN "MEHNAT ARMIYACHILARI" VA ULARNING TA'MINOTI	18-22
<i>Salayev Fazliddin Shamsiddin o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA DEMOGRAFIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA SHAKLLANISHI	23-28
<i>Abbasov Behzod Baxtiyorovich</i> FARG'ONA OBLASTIDA TASHKIL QILINGAN XO'JALIKLARDA IJTIMOIY MUAMMOLAR VA KO'CHIRILGAN AHOLINING YANGI SHAROITGA MOSLASHISHI (1946-1965).....	29-35
<i>Mirzaliyev Ulug'bek, Klichev Ulug'bek</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY ARXIVLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI ISHLAR VA ISLOHOTLAR	36-39
<i>Tursunova Gavhar Begmuradovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIDA OLIB BORGAN MA'MURIY-SIYOSIY BOSHQARUV TIZIMI (XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI)	40-50
<i>Vaxobov Doston Abdumannob o'g'li</i> IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MAKTAB, TIBBIYOT VA SOG'LIQNI SAQLASH XODIMLARINING G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI	51-54
<i>Sodiqova Yulduzzon Maxamat qizi</i> O'ZBEKISTONDA MAKTAB TA'LIMINI ISLOH QILINISHI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR (1991-2024 yy)	55-59
<i>Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich</i> QUYI SIRDARYOBO'YI HUDUDLARIDA OLIB BORILGAN ARXELOGIK TADQIQOTLAR VA ULARNING NATIJALARI	60-64
<i>Yo'ldosheva Gulbahor Nuriddinovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING AHVOLI VA MODDIY – TEXNIKA BAZASINING MUSTAHKAMLANISHI (QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI MISOLIDA)	65-69
<i>Mardiyeva Guzel Karimovna</i> XOTIN-QIZLARNING 1950-1980-YILLARDA SAMARQAND VILOYATI ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI	70-75
<i>Narziyev Rustambek Xaydarovich</i> HARAKATLAR STRATEGIYASIDA NOGIRONLIGI BOR YOSHLAR UCHUN YARATILGAN IMKONIYATLAR	76-80

<i>Abdullayev Ilhomjon Ikromjonovich</i>	
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN SHAHRINING	
IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI	81-87
<i>Sodiqova Maxbubaxon Raxmonaliyevna</i>	
O'ZBEKISTONNING MILLIY HUNARMANDCHILIGI RIVOJIDA	
IPAKCHILIKNING O'RNI	88-92
<i>G'ulomjon Jumanazarovich Axmedov</i>	
O'ZBEKISTON TARIXIDA KONCHILIK ISHI VA METALLURGIYA RIVOJLANISHI	93-99

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i>	
BARQARORLIK REYTINGI ORQALI FISKAL INTIZOM VA BIZNES MUHITINI	
RAG'BATLANTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI	100-116
<i>Юлдашева Надира Викторовна</i>	
«ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЗАКУПКИ ПОД КОНТРОЛЕМ:	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКОЙ МОДЕЛИ МОНИТОРИНГА».....	117-123
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i>	
ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	124-128
<i>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</i>	
TURISTIK VA REKREATSION KLASTERNING MUVAFFAQIYATLI	
FAOLIYAT YURITISH TAMOYILLARINI TIZIMLASHTIRISH	129-135
<i>Xadimova Aziza Abdufattoyevna</i>	
SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARI	
VA IQTISODIY RIVOJLANISHI.....	136-145
<i>Tashpulatov Giyos Toxirovich</i>	
XORIJY BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR REYTINGI VA RENKINGINI BAHOLASHDA	
KOMPLEKS YONDASHUVNING QO'LLANILISHI T AHLILI	
(ROSSIYADAGI BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR MISOLIDA)	146-159
<i>Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna</i>	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA	
INSON KAPITALINING TA'SIRI	160-164
<i>Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi</i>	
“QUTIDA RO'YXATGA OLISH” (SHELF-REGISTRATION) AMALIYOTINI JORIY ETISH	165-169

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Komilov Ro'zi Rabiyevich</i>	
OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MODDIY VA MA'NAVIY	
OMILLARNING FALSAFIY T AHLILI	170-172
<i>Хакимов Эркин</i>	
ЗНАНИЕ ЛОГИКИ КАК УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ	
МЫШЛЕНИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ	173-180
<i>Usmonova Laylo Raxmatullayevna</i>	
SHARQ FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI	181-185
<i>Karimov Yo'lqosh Ergashevich</i>	
TARIXNI SOXTALASHTIRISHNING TARIXIY TAFAKKURGA TA'SIRI MASALALARI	186-191

<i>Агзамходжаева Шахноза Сайдматмабовна</i>	
О ЦЕЛИ И СОДЕРЖАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЖИЗНИ, ДУХОВНОМ СОВЕРШЕНСТВЕ (ПО ПРОИЗВЕДЕНИЯМ АЛИШЕРА НАВАИ).....	192-195
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i>	
ZAMONAVIY IQTISODIY TARG'IBOT VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	197-204
<i>Evatov Salimjon</i>	
MARKAZIY OSIYODA TASAVVUFİY TAFAKKUR RIVOJI: IX-XII ASRLAR MEROSI	205-209
<i>Turobov Yorqinjon Yoqub o'g'li</i>	
ISLOM TA'LIMOTIDA SIYOSAT VA HOKIMIYAT FALSAFASI	210-213
<i>Toshpulatov Odil Nodirovich</i>	
IJTIMOIY MUNOSABATLARDA AMORALIZM VA IMMORALIZMNI OLDINI OLISHDA MAVJUD ME'YORLARNING AHAMIYATI	214-217
<i>Kunisheva Nadira Julianovna</i>	
"IJTIMOIY BAG'RIKENGLIK" TUSHUNCHASINI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI	218-223
<i>Eshpulatov Inoyat</i>	
FAXRIDDIN ROZIY YASHAGAN DAVR: IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT VA MA'NAVIY MUHIT	224-231
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Nuniyazova Shaxlo Ulugbekovna</i>	
O'ZBEK ONOMASTIKASIDA GIDRONIMLARNING LINGVOMADANIY SHAKLLANISHI	232-236
<i>Алиева Эльвина Аметовна</i>	
ЛЕКСИЧЕСКИЙ И ЛЕКСИКО-СИНТАКСИЧЕСКИЙ ПОВТОРЫ С РАСПРОСТРАНЕНИЕМ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОЧЕРКАХ М. ЦВЕТАЕВОЙ	237-243
<i>Usmanova Sevara</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TARIXIY ROMANLARIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA	244-251
<i>Ochilov Ulug'bek Sayfulloyevich</i>	
MAGIK REALIZMNING MADANIYAT VA ADABIYOTGA TA'SIRI.....	252-260
<i>Daminova Rahima Malikovna</i>	
ATOYI SHE'RIYATINING BADIY LATOFATI.....	261-266
<i>Yusupov Asror</i>	
PUBLITSISTIK MATNLARDA UCHROVCHI LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKAR TARJIMASIGA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV	267-271
<i>Ruziyeva Nasiba Kenjayevna</i>	
VLADIMIR GEORGEVICH GAKNING TARJIMA MASALALARIGA DOIR TADQIQOTLARI	272-276
<i>Batirkhanova Madina Oybekovna</i>	
COMPONENT ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH FICTION	277-281
<i>Sirojiddinova Shakhrribonu</i>	
THE FORMATION OF MYTHOLOGY AND THE INFLUENCING FACTORS	282-285

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i>	
DAVLAT XIZMATLARI VA FUQAROLIK-HUQUQIY XIZMATLAR TUSHUNCHASI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	286-292
<i>Wang Cong</i>	
RESEARCH ON LEGAL ISSUES OF PERSONAL INFORMATION PROTECTION	293-300
<i>Ли Адик</i>	
К ВОПРОСУ О ПОНЯТИИ И КЛАССИФИКАЦИИ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	301-310
<i>Abdurashidova Zarina Turg'un qizi</i>	
FUQAROSIZLIKKA QARSHI MUROSASIZLIK: HUQUQIY CHORALARING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI	311-315
<i>Axmatov Olimjon Odilovich</i>	
"KRIPTO-AKTIVLAR VA VALYUTA QIMMATLIKARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH, O'TKAZISH VA AYIRBOSHLASH: IQTISODIY, HUQUQIY XAVF-XATARLAR VA ULARNING OLDINI OLISHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI"	316-322
<i>Xatamov To'lqin Tojiddinovich</i>	
KUCHLI TA'SIR QILUVCHI VA GIYOHVANDLIK VOSITALARINI YANGI TURLARINI NOQONUNIY MUOMALASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI	323-329
<i>Kuchimova Shaxlo</i>	
VORISLIK HUQUQIDA MEROS MAJBURIYATI	330-337
<i>O'ranova Dilshoda Adhamovna</i>	
OILAVIY ZO'RAVONLIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARDA AYOLLAR JABRLANISHINI OLDINI OLISH BO'YICHA FARG'ONA TAJRIBASI	338-347
<i>Geng Zhimin</i>	
RESEARCH ON THE INDEPENDENCE OF THE INTERNATIONAL CRIMINAL COURT.....	348-351
<i>Xidirov Mexroj Qilich o'g'li</i>	
ELEKTRON TO'LOV VOSITALARI ORQALI SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIK JINOYATLARINING SABABLARI, ULARNING SODIR ETILISHIGA IMKON BERUVCHI OMILLAR	352-357
<i>Тулаганов Элмурод</i>	
ВОПРОСЫ ПРОТИВODEЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	358-367
<i>Bozorboyev Farruh, Boboxonov Akromxon</i>	
DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA PROTSESSUAL HARAKATLARNI SODDALASHTIRISH: XOLIS INSTITUTI	368-374
<i>Abbosov Mirluton Mirsharof o'g'li</i>	
JINOYAT QONUNCHILIGIDA SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY XAVFLILIGI	375-382

<i>Mamatov Islom Qosim o'g'li</i>	
DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI FOSH ETISH USULLARI, AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR	383-392
<i>Kamilov Oybek</i>	
O'ZBEKISTONNING MIGRATSIIYA SOHASIDA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR VA XORIJY DAVLATLAR BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	393-402
<i>Aбророва Камола Сайдмухторовна</i>	
ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО КОММЕРЧЕСКОГО АРБИТРАЖА НА ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ	403-410
<i>Ne'matova Muborak Odiljonovna</i>	
RAQAMLI FUQAROLIKNING MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISHGA OID DOLZARB MUAMMOLAR (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	411-418
<i>Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi</i>	
"HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIGA SUN'iy INTELLEKTNI INTEGRATSIYA QILISHNING AXLOQIY VA HUQUQIY MASALALAR"	419-427
<i>Agzamova Qizlarxon Baxtiyorovna</i>	
INSOFLI EGALLOVCHINING HUQUQIY MAQOMIGA OID AYRIM MASALALAR	428-432
<i>Shomirzayev Saxodulla, Sherkulov Azamat</i>	
VALYUTA QIMMATLIKARINI BOJXONA CHEGARASIDAN OLIB O'TISH BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNI ANIQLASH VA JAVOBGARLIK ASOSLARI	433-441
<i>Jumanazarov Faxriddin Erkinovich</i>	
KONTRAFAKT MAHSULOTLAR KONTRABANDASI NATIJASIDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI BUZILISHINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI	442-448
<i>Ergashev Sharifjon Shuhrat o'g'li</i>	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING JAMIYAT IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI VA UNGA QARSHI KURASHISHDA BOJXONA AUDITINING O'RNI	449-457
<i>Mansurov Arslon Askarovich</i>	
"IJTIMOIY DAVLAT" TAMOYILINING YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI HUQUQIY MAQOMI VA XALQARO TAJRIBA BILAN TAQQOSLAMA TAHLILI	458-463
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
"JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI" FANIDAN NAZARIY MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH METODIKASI	464-470
<i>Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi</i>	
EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKANI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISH: XORIJY TAJRIBA VA ILMIY YONDASHUVLAR	471-475
<i>Fayzullayeva Gulchexra, Kurbonova Gulmira</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O'QUV MUHITINI LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR	476-481

<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i>	
ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINING MAZMUNI VA TARKIBIY TUZILISHI.....	482-485
<i>Mirsanova Moxira Xusniddin qizi</i>	
FANTASTIK IFODA SHAKLLARI VA UNING BADIYATI	486-491
<i>Tursinova Zoxida Sharabidinovna</i>	
TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEXANIZMLARINING TAKOMILLASHUVIDA TA'LIM MENEJMENTINING O'RNI	492-496
<i>Раббимова Нодира Таштемировна</i>	
ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЕЙ В ВУЗЕ	497-501

Received: 16 March 2025**Accepted:** 5 April 2025**Published:** 15 April 2025*Article / Original Paper***INTOLERANCE TOWARDS STATELESSNESS: THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS OF LEGAL MEASURES****Abdurashidova Zarina**

Doctoral student

of the National Center for Human Rights of the Republic of Uzbekistan

Abstract. In this article, the author proposes some considerations regarding the causes of statelessness, its consequences, and measures to eliminate it. The theoretical and practical aspects of measures to solve the problem of statelessness are highlighted. Based on the research, proposals, and recommendations for the eradication of statelessness were developed.

Keywords: statelessness, de jure stateless person, de facto stateless person, apatride, jus soli, jus sanguinis.

FUQAROSIZLIKKA QARSHI MUROSASIZLIK: HUQUQIY CHORALARNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI**Abdurashidova Zarina Turg'un qizi**

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazi tayanch doktoranti

E-mail: abd.zarina.7550@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada muallif fuqarosizlik sabablari, uning oqibatlari va unga barham berish chora-tadbirlariga oid ayrim mulohazalarni ilgari surgan. Fuqarosizlik muammosini hal etish bo'yicha chora-tadbirlarning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqot asosida fuqarosizlikka barham berish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: fuqarosizlik, de yure fuqaroligi bo'limgan shaxs, de faktu fuqaroligi bo'limgan shaxs, apatrid, jus soli, jus sanguinis.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N49>

Kirish. Fuqarosizlik fuqaroligi bo'limgan shaxsni [1] og'ir ahvolga tushiradigan, uning ijtimoiy qiymatini pasaytiradigan, shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qotadigan, shuningdek, jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muammolarga, global beqarorlikka olib keladigan huquqiy fenomen hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo bo'ylab 4,4 million [2] aholini *de yure* fuqaroligi bo'limgan shaxslar tashkil etadi. Vaholanki, amaliyotda *de faktu* fuqaroligi bo'limgan shaxslar ham mavjud bo'lib, "odatda, "fuqarolik"ka ega bo'lgan, ammo o'z fuqaroligi mamlakatining himoyasiga ega bo'limgan va ushbu davlat hududidan tashqarida yashovchi, ya'ni fuqaroligi samarasiz bo'lgan" [3] yoki "o'z fuqaroligi mamlakatidan tashqarida bo'lgan, ushbu mamlakatning himoyasidan foydalana olmaydigan yoki uzrli sabablarga ko'ra foydalanishni istamaydigan" [4] shaxslar sanaladi. Biroq, *de faktu* fuqaroligi bo'limgan shaxslar 1954-yilgi "Apatrid (fuqaroligi bo'limgan shaxs) maqomi to'g'risidagi" va 1961-yilgi "Fuqarosizlikni kamaytirish to'g'risidagi" konvensiyalar doirasiga kiritilmaganligi sababli

e'tibordan chetda qolgan. Natijada, shaxslar rasmiy fuqarolik maqomiga ega bo'lsada, davlat tomonidan boshqa fuqarolarga taqdim etiladigan huquq va himoyadan foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'lganlar. Shunday bo'lishiga qaramay, ushbu shaxslar fuqaroligi bo'limgan shaxs sifatida e'tirof etilmaydilar. Hayoti davomida esa fuqaroligi bo'limgan shaxslar duch keladigan qiyinchiliklarga o'xshash muammolarga va to'siqlarga uchraydilar. Shu sababli, fuqarosizlikka qarshi kurashda ham *de jure*, ham *de facto* fuqaroligi bo'limgan shaxslarning huquq va manfaatlari inobatga olinishi talab etiladi.

Fuqaroligi bo'limgan shaxslar ko'p jihatdan "Unutilgan shaxslar" bo'lib, ko'pincha jamiyatning bir chekkasida yashaydilar va deyarli "hisobga olinmaydilar". Shu nuqtai nazardan, bugungi globallashuv sharoitida mazkur masalaning samarali yechim topishi xalqaro huquq va davlatlarning ichki qonunchilik tizimida dolzARB ahamiyat kasb etadi. Davlatlarga asosiy inson huquqlarini tan olish orqali fuqaroligi bo'limgan shaxslarni himoya qilish va fuqarosizlikka barham berish bo'yicha davlat siyosatini qabul qilish majburiyatini yuklaydigan xalqaro huquqning majburiy hujjalari mavjudligi, o'z navbatida, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiq ravishda yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Chunki, xalqaro huquq fuqaroligi bo'limgan shaxslar foydalanishi kerak bo'lgan minimal muomala standartlarini ishlab chiqadi, davlatlarning fuqarolik to'g'risidagi milliy huquq tizimi esa mazkur xalqaro standartlar asosida fuqarolikni olish yoki yo'qotish shartlarini belgilaydi. Tadqiqotchi Kerol Batchelorning fikricha, agar bir davlat shaxs yoki guruhga fuqarolikni bermasa, bu barcha davlatlar uchun potensial muammoga aylanadi. Shunga ko'ra, jahon hamjamiyati mazkur masalaga jiddiy yondashib, har bir davlat fuqarolik bo'yicha o'z milliy qonunchilik asoslarini va ma'muriy amaliyotini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bundan tashqari, davlatlar fuqaroligi bo'limgan shaxslar huquqlarini himoya qilishga korrelyativ yuridik burch sifatida yondashishi lozim. Avstriyalik huquqshunos va huquq faylasufi Hans Kelsen ta'kidlaganidek, kimdir o'zining huquqiga ega ekanligini da'vo qilishi uchun kimningdir korrelyativ yuridik burchi bo'lishi kerak.

Material va metodlar. Tadqiqot qator vositalar va manbalarga, xususan, milliy va xalqaro ma'lumotlar bazalari hamda ilmiy kutubxonalarga tayanadi.

Ushbu maqola yuzasidan ilmiy izlanishlar natijasida muallif tomonidan statistik, induktiv, deduktiv, mantiqiylik, qiyosiy-tahlil, tizimli tahlil qilish, tasniflash, singari huquqiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari tahlili. Fuqarosizlik ko'lamenti, uning sabablari va oqibatlarini tushunish muammoni hal qilishda zarur qadam hisoblanadi. Fuqarolik to'g'risidagi milliy qonunchilikdagi bo'shliqlar, ulardagi gender kamsitishlar, diskriminatsiya, davlatlarning huquqiy vorisligi, davlat chegaralarining o'zgarishi, fuqarolikni yo'qotish yoki undan mahrum qilish, migratsiya kabilarni shaxsning fuqarosizligiga olib keladigan sabablar sifatida ko'rsatish mumkin. BMT Qochoqlar bo'yicha Oliy Komissari boshqarmasining "Hech qayerning fuqarolari" (**Citizens of Nowhere**) nomli hisobotiga muvofiq, *jus sanguinis* (qon qarindoshligi orqali fuqarolik) va *jus soli* (mamlakatda tug'ilish orqali fuqarolik) o'rtaсидаги nomuvofiqliklar fuqarosizlikka olib kelishi mumkin bo'lgan texnik sabab sifatida ko'rsatilgan. Xususan, unga ko'ra, qon asosida fuqarolikka ega bo'lishi mumkin bo'lgan bola *jus soli* prinsipiiga asoslangan fuqarolik to'g'risidagi qonunlar amalda bo'lgan mamlakat hududida tug'ilimgaganligi sababli rad etilishi mumkin bo'lgan ko'plab holatlar mavjudligi, xuddi shunday, *jus sanguinis* tamoyiliga asoslangan fuqarolik to'g'risidagi qonunlarga ega bo'lgan hududda tug'ilgan, ammo rasman tan

olingen qon tarmog'iga ega bo'lmanan bola ham fuqarolikdan mahrum etilishi mumkinligi qayd etilgan. [5]

Ta'kidlash joizki, fuqarosizlikning yuzaga kelishi asosan davlatlarning fuqarolik to'g'risidagi qonunlariga bevosita bog'liq. Chunki, har bir davlat o'z fuqaroligini qanday olish yoki undan mahrum qilish mumkinligini belgilovchi o'z qonuniga ega bo'lib, agar bu qonunlar puxta yozilmasa va to'g'ri qo'llanilmasa, ba'zi shaxslar chetda qolib, fuqarosiz bo'lib qolishlari mumkin. Xalqaro huquqda fuqarosizlikka nisbatan murosasizlikda 2 ta asosiy tamoyil muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Tug'ilganda fuqarosizlikka yo'l qo'ymaslik;
2. Fuqarosizlikka olib keladigan denatsionalizatsiyaga yo'l qo'ymaslik.

Tug'ilganda fuqarosizlikka yo'l qo'ymaslik tamoyili har bir shaxs hayotining boshida fuqarolikka ega bo'lishini, fuqarosizlikka olib keladigan denatsionalizatsiyaga yo'l qo'ymaslik tamoyili esa agar shaxs boshqa fuqarolikka ega bo'lmasa, bu fuqarolik yo'qolmasligini ta'minlashni nazarda tutadi. Bir so'z bilan aytganda, har ikki tamoyil ham fuqarosizlikning oldini olishga qaratilgan. Fuqarosizlikning oldini olish kelajakdag'i fuqarosizlikning mumkin bo'lgan sabablarini bartaraf etishni anglatadi.

Tug'ilganidan fuqarolik olishning ikki xil ko'rinishi mavjud:

1. Avtomatik ravishda;
2. Noavtomatik ravishda.

Birinchi holatda shaxs tug'ilgan paytdan boshlab, ro'yxatdan o'tgan-o'tmaganligidan qat'i nazar, fuqaro hisoblanadi. Ikkinci holatda esa, fuqarolikni olish uchun ro'yxatdan o'tishning ma'lum bir shakli talab etiladi. Mazkur ikki holatdan tashqari, fuqarolikni naturalizatsiya orqali ham olish mumkin. Odatda, kamsitish holatlari tug'ilganidan boshlab fuqarolikka ega bo'lish qoidalariga qaraganda naturalizatsiya qoidalarida ko'proq uchraydi.

"Belarus Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi Qonunning 13-moddasi tug'ilganda fuqarosizlikka yo'l qo'ymaslik tamoyiliga muvofiq bo'lgan norma bo'lib, unga asosan "Belarus Respublikasi hududida tug'ilgan, ota-onasi (yolg'iz ota yoki ona) u tug'ilgan paytda Belarus Respublikasida doimiy yashovchi chet el fuqarolari bo'lgan shaxs bo'lsa va ota-onasi fuqarosi hisoblangan davlat bolaga o'z fuqaroligini bermasa, bola tug'ilganlik bo'yicha Belarus Respublikasi fuqaroligini oladi".[6]

Fuqarosizlikka olib keladigan denatsionalizatsiyaga yo'l qo'ymaslik tamoyili Finlyandiya Fuqarolik Aktida o'zining ijobiy aksini topgan bo'lib, unga ko'ra ushbu Qonunning fuqarolikni yo'qotish va fuqarolikdan mahrum qilish to'g'risidagi qoidalari, agar ularni qo'llash natijasida shaxs fuqaroligi bo'lmanan shaxsga aylansa, qo'llanilmasligi [7] belgilangan.

Moldova Respublikasining "Fuqarolik to'g'risida"gi Qonuning 22-moddasi ham aynan fuqarosizlikka olib keladigan denatsionalizatsiyaga yo'l qo'ymaslik tamoyili asosida yaratilgan norma bo'lib, unga muvofiq fuqarolikdan chiqish bo'yicha quyidagi normaning belgilanganligi e'tiborga loyiq:

(1) Moldova Respublikasi fuqaroligidan chiqishga ariza beruvchiga uning boshqa davlat fuqaroligiga mansubligini yoki ushbu fuqarolikni olganligini tasdiqllovchi guvohnomani yoxud boshqa davlat fuqaroligini olish kafolatlarini taqdim etish sharti bilan ruxsat etiladi.

(2) Agar Moldova Respublikasi fuqaroligidan chiqishga ruxsat berilgan shaxs, taqdim etilgan kafolatlarga qaramay, boshqa davlat fuqaroligini olmasa, ya'ni fuqaroligi bo'lmanan shaxsga aylansa, Moldova Respublikasi Prezidentining Moldova Respublikasi fuqaroligidan

chiqishga ruxsat berish to'g'risidagi farmoni ushbu shaxsga taalluqli qismida belgilangan tartibda o'z kuchini yo'qotgan deb topiladi. [8]

Tadqiqotchi David Weissbrodt va Clay Collins fuqarosizlik muammosini hal etish bo'yicha choralarni uchta toifaga ajratadilar:

1. "Oldini oluvchi chora-tadbirlar" (*pre-emptive remedies*) – fuqarosizlik holatining yuzaga kelishining oldini olishga qaratilgan;

2. "Yengillashtiruvchi chora-tadbirlar" (*minimization remedies*) – fuqaroligi bo'limgan shaxslarning duch keladigan qiyinchiliklarini kamaytirish va ularni himoya qilishga xizmat qiladi;

3. "Fuqarolikka qabul qilish choralari" (*naturalizing remedies*) – fuqaroligi bo'limgan shaxslar uchun fuqarolikni ta'minlashga qaratilgan. [9]

Bizning nazarimizda, fuqarosizlik muammosini hal etishda har bir toifadagi chora-tadbirlar muhim. Chunki, bir chora-tadbir boshqa bir chora-tadbirning ijobiy natija berishiga uzviy bog'liqni tashkil etadi. Shunga ko'ra, samarali natijalarga erishish uchun xalqaro hamjamiyat va har bir davlat yuqorida ko'rsatib o'tilgan chora-tadbirlar doirasida o'zaro hamkorlikda ishlashi, huquqiy va siyosiy islohotlarni amalga oshirishi lozim.

Fuqarolik va fuqarosizlik bo'yicha Xalqaro huquq komissiyasining maxsus ma'ruzachisi Manly Hudson ta'kidlaganidek, rasmiy yechimlar fuqaroligi bo'limgan shaxslar sonini kamaytirishi mumkin, biroq bu himoyasiz shaxslar muammosini hal etmaydi. Bu holat de-yure fuqaroligi yo'qlikdan de-fakto fuqaroligi yo'qlikka o'tishga olib kelishi mumkin. Manly Hudson fikriga qo'shilgan holda aytish mumkinki, fuqarosizlik masalasini faqatgina rasmiy jihatdan bartaraf etibgina qolmasdan, shaxsning o'z huquqiy maqomi va huquqlaridan haqiqatan ham foydalana olishini ta'minlash lozim.

Milliy qonunchilik odatda fuqarolikni yo'qotish mezonlarini belgilaydi. Fuqarolikni yo'qotish avtomatik ravishda, ya'ni "qonun amal qilishiga muvofiq" yohud davlatning alohida shaxsga yoki shaxslar guruhiga nisbatan avtomatik bo'limgan qarori bilan sodir bo'lishi mumkin. "Qonun amal qilishiga muvofiq" avtomatik ravishda fuqarolikni yo'qotishda shaxs muayyan shartlarni bajarmagan yoki taqiqlangan harakatlarni sodir etganida, fuqarolikni o'z-o'zidan yo'qotadi. Mazkur holatda qonun avtomatik ravishda amal qiladi va davlat tomonidan maxsus qaror qabul qilinishi talab etilmaydi. Ikkinci holatda esa, aksincha, davlat organlari tomonidan alohida shaxsga yoki shaxslar guruhiga nisbatan chiqariladigan huquqiy qarori asosida amalga oshirilib, odatda davlat tomonidan siyosiy yoki xavfsizlik sabablariga asoslanib qo'llaniladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, fuqarosizlikka to'liq barham berish va uning oldini olishda davlatlar bu borada ham xalqaro, ham milliy darajada majburiyat olishi zarur. Davlatlar tomonidan milliy qonunchilik va ma'muriy tizimida amalga oshirilayotgan rasmiy yechimlar faqatgina statistik ko'rsatkichlar uchungina emas, balki inson manfaatlari uchun bo'lishi maqsadga muvofiq. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi taklif va tavsiya ishlab chiqildi:

1. "Apatrid (fuqaroligi bo'limgan shaxs) maqomi to'g'risida"gi konvensiyada nafaqat de yure fuqaroligi bo'limgan shaxsning, balki de faktso fuqaroligi bo'limgan shaxsning ham huquqlari kafolatlanishini ta'minlaydigan normalarni qo'shish;

2. “O’zbekiston Respublikasining fuqaroligi to’g’risida”gi Qonunini tug’ilganda fuqarosizlikka yo’l qo’ymaslik va fuqarosizlikka olib keladigan denatsionalizatsiyaga yo’l qo’ymaslik tamoyillari asosida yanada takomillashtirish.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. “Apatrid (fuqaroligi bo’lmagan shaxs) maqomi to’g’risidagi” konvensiya, 1954 y.// <https://www.unhcr.org/centralasia/wp-content/uploads/sites/75/2021/11/UNHCR-Statelessness-conventions-2021-A5-screen-1.pdf>
2. 2024-yil iyun oyi oxiri bo'yicha BMT Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasining statistik ma'lumoti, 26.01.2025 y. // BMT Qochoqlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasining rasmiy sayti, 19.03.2025 y., <https://www.unhcr.org/about-unhcr/who-we-protect/stateless-people>
3. P. Weis, The United Nations Convention on the Reduction of Statelessness, 1961, The International and Comparative Law Quarterly, Vol. 11, No. 4 (Oct., 1962), pp. 1073-1096 p.1086 Access 11/04/18 via JSTOR <https://www.jstor.org/stable/755987>
4. Hugh Massey., UNHCR and De Facto Statelessness. Legal and Protection Policy Research Series p.61 at para 10
5. United Nations High Commissioner for Refugees and Open Society Justice Initiative (2012) *Citizens of Nowhere: Solutions for the Stateless in the U.S.* United Nations High Commissioner for Refugees, p. 14. Available at: <https://www.refworld.org/reference/countryrep/unhcr/2012/en/89673> (Accessed: 27 March 2025).
6. Закон “О гражданстве Республики Беларусь”, 05.01.2023 у., №136-З // Законодательство стран СНГ, 24.03.2025 г., https://base.spinform.ru/show_doc.fwx?rgn=146782
7. Legislative Herald of Finland (2003) Finnish Citizenship Act, No. 359, 1 June. Available at: <https://finlex.fi/sv/lagstiftning/2003/359> (Accessed: [22.03.2025]).
8. Национальная база данных Республики Молдова (2000). Закон о гражданстве Республики Молдова № 1024 от 2 июня. Доступно по ссылке: https://www.legis.md/cautare/getResults?doc_id=143988&lang=ru# (дата обращения: 24.03.2025).
9. D.S. Weissbrodt and C. Collins, “The Human Rights of Stateless Persons”, Human Rights Quarterly 28, no. 1 (2006), 271.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 4 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).